IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: DQ56756934

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

# ONA TILI FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60110400 – Boshlang‘ich ta’lim |

**Qo‘qon - 2025**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/mavzu kodi<br><br>OTili<br>1123420</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026<br>2026-2027</td><td>Semestr<br>1, 2,<br>3, 4</td><td colspan="3">Kreditlar<br>5/5/6/4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/ mavzu turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus</td><td colspan="3">Haftadagi dars soatlari<br>4, 4, 5, 4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Kurs ishi</td><td colspan="2">Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Ona tili</td><td>60/60/74/60</td><td>90/90/60/106</td><td>0</td><td colspan="2">254/346</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="6">

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me’yorlari, lug‘at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi, uslubiyat masalalari yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir. Talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga o‘rgatish, ularda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Fanning vazifasi – talabalarda boshlang‘ich sinflar ona tili ta’limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni, shuningdek, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, maktab darsliklarining mazmuni va metodik tuzilishi bilan tanishtirish orqali boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning zamonaviy ilg‘or metod, usullari haqida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Til ijtimoiy, doim o‘zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. Dunyo tillarining tasnifi

Tilshunoslik fani, uning vazifalari haqida ma’lumot. Tilning ijtimoiy mohiyati, tuzilishi. Tilning paydo bo‘lishi haqidagi nazariyalar.

O‘zbek tili - O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi O‘zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lu g‘at tarkibi), grammatik qurilishi. Dunyo tillarining tasnifi.

2-mavzu. Dunyo tillari tasnifi. Tilshunoslik bo’limlari
</td></tr>
</table>

Tillarning tasnifi:1)geneologik tasnif; 2)morfologik tasnif, 3)areal tasnif. Tilshunoslik bo‘limlari.

**3-mavzu. Fonetika va fonologiya**

Fonetikaning predmeti va vazifasi. Fonetikaning turlari. Tovush nutqning – eng kichik birligi sifatida. Fizik-akustik aspekt. Anatomik fiziologik aspekt. Nutq a’zolari, nutq apparati. Artikulyatsiya. Perseptiv aspekt. Lingvistik-funksional aspekt.

**4-mavzu. Fonologiya. Fonema va uning variantlari**

Fonologiya haqida ma’lumot. Fonema nazariyasining paydo bo’lishi. Fonema variantlari.

**5-mavzu. O‘zbek tili vokalizmi va konsonantizmi**

Unli tovushlar, tilning gorizontal, vertikal harakatiga ko‘ra hamda lablarning ishtirokiga ko‘ra unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar, ularning artikulyatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga, usuliga ko‘ra hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tasnifi.

**6-mavzu. Nutqning fonetik bo‘linishi**

Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so‘z, bo‘ g‘in, tovush. Ur g‘u va uning turlari: so‘z ur g‘usi (leksik ur g‘u), gap ur g‘usi (mantiqiy ur g‘u); bo g‘liq va erkin ur g‘u. Ur g‘u olmaydigan birliklar. Ur g‘uning so‘z ma’nosini farqlashdagi roli.

**7-mavzu. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari**

Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarish xususiyatlari: kombinator o‘zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o‘zgarishlar.

8-**mavzu. Grafika haqida umumiy ma’lumot. Orfoepiya**

Grafika haqida umumiy ma’lumot. Grafemalar va ularning turlari. Yozuv haqida umumiy ma’lumot. Yozuvning turlari. O‘zbek yozuvlari tarixidan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining orfoepik me’yorlari.

**9-mavzu. Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyillari**

O‘zbek imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari; morfologik, fonetik, an’anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va yetakchi tamoyil ekanligi. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari.

**10-mavzu. O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari**

Qo’shib yozish. Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish. Bosh harflar imlosi. Ko’chirish qoidalari. Yangi imlo qoidalariga asosan ayrim so’zlarning yozilishi.

| | |
|---|---|
| | **11-mavzu. Leksikologiya, uning obekti, turlari, vazifalari. Ona tili lug‘at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi**<br>Leksema va so‘z, ularning o‘zaro farqlari. So‘zning leksik va grammatik ma’nosi. Leksema va so’z. Semema, sema. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi. Ma’no ko‘chirishning asosiy turlari; metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik (ma’noning vazifaga ko‘ra ko‘chishi; ma’noning torayishi va kengayishi.<br><br>**12-mavzu. Lug‘at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi. Leksik omonimiya**<br>Ona tilida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari haqida ma’lumot. Omonimiya qaqida umumiy ma’lumot. Leksik omonimlarning turlari. Omonimlarning yuzaga kelish yo’llari. Omonimiya va ko’p ma’nolilik. Omonimlarning nutqdagi aqamiyati. Omofon va omograflar.<br><br>**13-mavzu. Leksik sinonimiya, antonimiya va paronimlar**<br>Sinonimlar qaqida umumiy ma’lumot. Sinonimlarning turlari. Sinonimlarning yuzaga kelishi yo’llari. Ko’p ma’nolilik (polisemiya) va sinonimiya. Nutqda sinonimlardan foydalanishning aqamiyati. Antonimlar va ularning o’ziga xos xususiyatlari. Antonimlarning so’z turkumlari jiqatidan turlari. Antonimlarning polisemiya va sinonimiya hodisalariga bog’lab o’rganish. Antonimlarning yuzaga kelishi yo’llari. Antonimlarning nutqdagi ahamiyati. Paronimlar.<br><br>**14-mavzu. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi**<br>Tarixiy shakllanish jihatdan hozirgi ona tili leksikasi. Hozirgi ona tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi. Umumxalq leksikasi; dialektal leksik dialektizmlar; kasb-hunar leksikasi. Termin va terminologik leksikasi (atamalar leksikasi); jargon va argolar.<br><br>**15-mavzu. Lug‘at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug‘at tarkibining hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi.**<br>Ona tilining nofaol leksikasi, neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar). Hissiy-ta’siriy jihatdan ona tili leksikasi; umumiste’moldagi hissiy-ta’siriy bo‘yoqsiz va bo‘yoqdor so‘zlar.<br><br>**16-mavzu. Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi. Leksikografiya**<br>Frazeologiya haqida ma’lumot. Frazema til va nutq birligi sifatida. Frazemalarning ma’no xususiyatlariga ko‘ra asosiy belgilari va turlari. Leksikografiya haqida umumiy ma’lumot. Lug‘atlar va ularning tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (yoki filologik) lug‘atlar. Bir tilli va ko‘p |

| | |
|---|---|
| | tilli lingvistik lug‘atlar. Bir tilli lingvistik lug‘atlarning tiplari.<br><br>**17-mavzu. Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot**<br>Morfema va uning turlari: o‘zak morfema va affiksial (qo‘shimcha) morfema. Affiksal morfemalarning turlari: so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslar. Affiksal morfemalariing tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda affikslar va murakkab affikslar.<br><br>**18-mavzu. O‘zbek tilida so‘z yasalishi**<br>Tub va yasama so‘zlar. So‘z yasalishi haqida ma’lumot. O‘zbek tilida so‘z yasash usullari: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik, juftlash va takrorlash.<br>Affiksatsiya va kompozitsiya usullari - o‘zbek tilida so‘z yasashning eng asosiy usullari ekanligi.<br>**19-mavzu. Grammatika haqida umumiy ma’lumot**<br>So‘zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli. So‘zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol ko‘rsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiy ma’lumot. Grammatik kategoriya, grammatik ma’no va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.<br><br>**20-mavzu. Morfologiya haqida umumiy ma’lumot**<br>Morfologiya grammatikaning so‘z turkumlari va shu turkumlarga xos kategaroial, nokategorial shakllar tizimi. Ona tilida so‘z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma’lumot. Hozirgi ona tilida so‘zlarning mustaqil, yordamchi va alohida guruh so‘z turkumlariga ajratilishi.<br><br>**21-mavzu. Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari.**<br>Otning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari. Atoqli otlarning turlari. Turdosh otlarning turlari.<br><br>**22-mavzu. Otlarda son kategoriyasi**<br>Ot turkumining son kategoriyasi. Otlarning birlik va ko‘plik shakllari. Otlarning nokategorial shakllari.<br><br>**23-mavzu. Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari**<br>Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari: otlardagi egalik kategoriyasi Egalik affikslarida ko’p ma’nolilik. Egalik bilan bog‘liq fonetik hodisalar. Egalik affikslarining ishlatilishi.<br>**24-mavzu. Otlardagi kelishik kategoriyasi haqida umumiy ma’lumot**<br>Bosh kelishik. Qaratqich kelishik. Tushum kelishigi. Jo’nalish kelishigi. O’rin- |

| | | |
|---|---|---|
| | | payt kelishigi. Chiqish kelishigi.<br><br>**25-mavzu. Otlarning yasalishi; otlarning tuzilish jihatdan turlari.**<br>Otlarning yasalishi: Otlarda modal forma yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo‘shma, qisqartma, juft otlar.<br><br>**26-mavzu. Sifat so‘z turkumi**<br>Sifatning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari. Sifatlarning ma’no jihatdan turlari. Asliy va nisbiy sifatlar. Sifatlardagi daraja kategoriyasi. Sifatlarning yasalishi. Sifatlarning otlashishi. Sifatlarning tuzilish turlari. Sifatning modal shakllari. Affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan sifat yasash. Sifatlarda modal forma yasalishi. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo‘shma, birikmali va juft sifatlar.<br><br>**27-mavzu. Son so‘z turkumi sifatida.**<br>Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, morfologik belgilari, sintaktik vazifasi. Sonlarning ma’no turlari.<br><br>**28-mavzu.. Olmosh so‘z turkumlari sifatida.**<br>Olmosh. Olmoshning grammatik ma’nosi, boshqa so‘z turkumlariga morfologik ekvivalentligi (mosligi); otlashish xususiyatlari, gapdagi vazifasi. Olmoshlarning ma’no turlari.<br>**29-mavzu. Fe’l so‘z turkumi sifatida.**<br>Fe’lning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari. Bo‘lishli va bo‘lishsiz, o‘timli va o‘timsiz fe’llar.<br><br>**30-mavzu. Fe’llarning nisbat kategoriyasi.**<br>Fe’l nisbat (daraja)lari: aniq, o‘zlik, majhullik, birgalik, orttirma nisbatlar. Fe’l nisbatlarining grammatik ma’nosi va shakllari.<br><br>**31-mavzu. Fe’llarning mayl kategoriyasi**<br>Fe’l mayllari (xabar mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o‘ziga xos xususiyatlari. To‘liqsiz fe’llar.<br><br>**32-mavzu. Fe’llarning zamon kategoriyasi.**<br>Fe’l zamonlari, ularning turlari (o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon fe’llari). O‘tgan zamon fe’lining turlari: yaqin o‘tgan zamon fe’li, uzoq o‘tgan zamon fe’li, o‘tgan zamon hikoya fe’li, o‘tgan zamon davom fe’li, o‘tgan zamon maqsad fe’li. Hozirgi zamon fe’lining turlari: Hozirgi-kelasi zamon fe’li, hozirgi zamon davom fe’li. Kelasi zamon fe’lining turlari: kelasi zamon gumon fe’li, kelasi zamon maqsad fe’li. |

| | |
|---|---|
| | **33-mavzu. Fe’llarning shaxs-son kategoriyasi.**<br>SHaxs-son (yoki tuslovchi) affikslar. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo‘llanish xususiyatlari.<br><br>**34-mavzu. Fe’lning vazifadosh shakllari.**<br>Sof fe’l va uning xususiyatlari. Ravishdosh va uning xususiyatlari va turlari.<br><br>**35-mavzu. Sifatdosh, harakat nomi.**<br>Sifatdosh uning grammatik ma’nosi, yasalishi; fe’l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tuslanish, zamon ifodalash xususiyatlari). Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe’lga va otga xos xususiyatlari.<br><br>**36-mavzu. Fe’lning yasalishi. Fe’lning modal shakllari va tuzilish jihatdan turlari.**<br>Affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe’l yasash. Sodda va qo‘shma fe’llar. Juft fe’llarning o‘ziga xos xususiyatlari. Fe’lning modal ma’no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko‘makchi fe’llar. To‘liqsiz fe’l.<br><br>**37-mavzu. Ravish so‘z turkumi sifatida.**<br>Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari. Ravishlarning ma’no turlari: holat, mikdor-daraja, payt, urin sabab, matssad ravishlari Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar). Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ravish yasash Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, q o ‘ s h m a , juft va takroriy ravishlar.<br><br>**38-mavzu. Yordamchi so‘zlar.**<br>Ko‘makchilar. Ularning grammatik xususiyati, turlari: asl ko‘makchilar, ot ko‘makchilar, fe’l ko‘makchilar, Ko‘makchi va kelishik qo‘shimchalari. Ko‘makchi otlar. Bo g‘lovchilarning qo‘llanishiga ko‘ra turlari: yakka bog‘lovchilar va takroriy bo g‘lovchilar. Grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra bo g‘lovchilarning turlari. Yuklamalar. Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalarniig tuzilishiga ko‘ra turlari: so‘z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma’no turlari.<br><br>**39-mavzu. Alohida guruh so`zlari.**<br>Modal so‘zlar, ularning ma’no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari. Undov so’zlarning grammatik xususiyatlari. Undov so’zlarning turlari. Undov so’zlarning sintaktik vazifasi. Taqlid so’zlarning grammatik xususiyatlari. Taqlid so’zlarning turlari. Taqlid so’zlarning sintaktik vazifasi.<br><br>**40-mavzu. Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi.** |

Sintaksis haqida ma’lumot. Gapda so‘zlarning teng va ergash bo g‘lanishi haqida umumiy ma’lumot. Ergash bo g‘lanish so‘z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi. So‘z birikmasi. So‘z birikmasining tuzilishi va grammatik ma’nolari. Birikma tarkibidagi so‘zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So‘z birikmalarining turlari.

**41-mavzu. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari.**

Darak, so‘roq, buyruq gaplar. His-hayajon (undov) gaplar, ularning turlari (darak-undov, so‘roq-undov, buyruq-undov gaplar).

**42-mavzu. Gap bo‘laklari haqida umumiy ma’lumot. Bosh bo‘laklar.**

Ega va kesim (bosh bo‘laklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe’l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi.

**43-mavzu. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari**.

To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to‘ldiruvchilar, ularning shakllanishi.

**44-mavzu. Aniqlovchi va uning ifodalanishi.**

Sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchilar aniqlovchining turlari ekanligi.

**45-mavzu. Hol va uning ifodalanishi.**

Hol, uning turlari: ravish, payt, o‘rin, sabab va maqsad hollari. Miqdor-daraja, shart va to‘siqsizlik hollari, ularning ifodalanishi. Gap bo‘laklarining joylashish tartibi.

**46-mavzu. Gapning uyushiq bo‘laklari.**

Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qo‘llanishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**47-mavzu. Gapning ajratilgan bo‘laklari.**

Gap bo‘laklarining ajratilish sabablari. Ajratilgan bo‘laklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to‘ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**48-mavzu. Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar.**

Undalma, kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik bo g‘lanmaslik va o‘ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgalarining ishlatilishi.

| | |
|---|---|
| | **49-mavzu. Gaplarning tuzilish jihatidan turlari. Bir bosh bo‘lakli gaplar.**<br>Sodda gap turlari: bir bosh bo‘lakli gaplar va ikki bosh bo`lakli gaplar. Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan- shaxssiz gaplar. Atov (yoki nominativ), infinitiv, vokativ gaplar. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar (so‘z-gaplar), ularning o‘ziga xos xususiyatlari. To‘liq va to‘liqsiz gaplar. To‘liqsiz gaplarning tuzilish va qo‘llanish xususiyatlari. Ikki bosh bo‘lakli sodda gaplar, ularning turlari.<br><br>**50-mavzu. Qo‘shma gap va uning turlari. Bog’langan qo‘shma gap.**<br>Qo‘shma gap haqida umumiy ma’lumot, ularning turlari. Bo g‘langan qo‘shma gap. Bo g‘langan qo‘shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bo g‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro bo g‘lanish usuli ekanligi. Teng bo g‘lovchilar, teng bo g‘lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo‘lsa", "esa" so‘z shakllari bo g‘langan qo‘shma gap qismlarini bo g‘lovchi vositalar ekanligi. Bo g‘langan qo‘shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi.<br><br>**51-mavzu. Ergashgan qo‘shma gap, uning turlari. Bosh gapdagi ma’lum bo‘lakni izohlovchi ergash gaplar.**<br>Ergashgan qo‘shma gap - bosh va ergash gaplarning tobelik munosabati asosida vujudga keladigan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bo g‘lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko‘makchilar, nisbiy so‘zlar, turli fe’l shakllari ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar ekanligi. Ergashgan qo‘shma gapning turlari: ega ergash gapli qo‘shma gap, kesim ergash gapli qo‘shma gap, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap.<br><br>**52-mavzu. Bosh gapni to‘liq izohlovchi qo‘shma gaplar.**<br>Ravish ergash gapli qo‘shma gap, daraja-miqdor ergash gapli qo‘shma gap, payt ergash gapli qo‘shma gap, o‘rin ergash gapli qo‘shma gap, sabab ergash gapli qo‘shma gap, o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gap, shart ergash gapli qo‘shma gap, to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap, natija ergash gapli qo‘shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo‘lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohlash xususiyati. Ergashgan qo‘shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi.<br><br>**53-mavzu. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap.**<br>Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlarining birikish usullari (sanash va tobelanish ohanglari). Intonatsiya (ohang) bo g‘lovchisiz qo‘shma gap komponentlarini o‘zaro bo g‘lovchi vosita ekanligi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi komponentlarning mazmun munosabati. Bo g‘lovchisiz qo‘shma gap turlari: bir |

tipdagi va turli tipdagi komponentlardan tuzilgan bo g‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Bo g‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**54-mavzu. Murakkab qo‘shma gap.**

Murakkab qo‘shma gap uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va intonatsiya jihatdan bo g‘lanishidan tuzilgan sintaktik birlik sifatida. Murakkab qo‘shma gaplarning turlari. Teng boglanish yordamida tuzilgan murakkab qo‘shma gap.

**55-mavzu. Ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar, aralash tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.**

Ergashish yuli bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplarning turlari: to‘g’ridan to‘g’ri ergashish va ketma-ket ergashish. Bo g‘lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar. Murakkab (komponentli) qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**56-mavzu. O‘zga gap va uning turlari.**

O‘zga gap turlari: ko‘chirma gapli qurilma, o‘zlashtirma gap. Ko‘chirma gapli qurilmaning tarkibiy qismlari: muallif (avtor) gapi va ko‘chirma gap, ularning o‘zaro bo g‘lanishi. Ko‘chirma gapning muallif gapiga nisbatan prepozitiv, postpozitiv va inpozitiv holatlarda qo‘llana olishi ko‘chirma gapli qurilmalarning o‘ziga xos xususiyati ekanligi. O‘zlashtirma gap, uning o‘ziga xos xususiyatlari. Ko‘chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ko‘chirma gapli qurilmalarni o‘zlashtirma gapga aylantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

**57-mavzu. Matn va uning xususiyati**

Matnning ta’rifi . Matnning tasnifi . Matnning xususiyatlari. Matnning qurilishi. Matnni shakllantiruvchi vositalar.

**58-mavzu. Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari**

Punktuatsiyaning paydo bo’lish tarixi. Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari (mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differensiatsiya tamoyili). Ona tilida tinish belgilarining tasnifi va qo’llanishi. Nuqta va uning qo’llanishi. So’roq va uning qo’llanishi. Undov va uning qo’llanishi.

**59-mavzu. Ona tilida tinish belgilarinig qo‘llanishi**

O‘zbek tilida tinish tinish belgilarining qo‘llanish o‘rinlari. Vergul va uning qo’llanishi. Nuqtali vergul va uning qo’llanishi. Ikki nuqta va uning qo’llanishi. Ko’p nuqta va uning qo’llanishi. Tire va uning qo’llanishi. Qavs va uning qo’llanishi. Qo’shtirnoq va uning qo’llanishi.

**60-Mavzu. Nutq uslublari.**

Uslubiyat va uslubshunoslik. Nutq uslublari haqida ma’lumot. Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va morfologik uslubiyat, sintaktik uslubiyat.

| | |
|---|---|
| | **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**<br>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. Dunyo tillarining tasnifi<br>2. Dunyo tillari tasnifi. Tilshunoslik bo'limlari<br>3. Fonetika va fonologiya<br>4. Fonologiya. Fonema va uning variantlari<br>5. O'zbek tili vokalizmi va konsonantizmi<br>6. Nutqning fonetik bo'linishi<br>7. Nutq tovushlarining fonetik o'zgarishlari<br>8. Grafika haqida umumiy ma'lumot. Orfoepiya<br>9. Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyillari<br>10. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari<br>11. Leksikologiya, uning obekti, turlari, vazifalari. Ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatdan tavsiflanishi<br>12. Lug'at tarkibining shakl va ma'no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi. Leksik omonimiya<br>13. Leksik sinonimiya, antonimiya va paronimlar<br>14. Lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi<br>15. Lug'at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug'at tarkibining hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi.<br>16. Lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma'no va tarkib jihatdan tavsiflanishi. Leksikografiya<br>17. Morfemika va morfema haqida umumiy ma'lumot<br>18. O'zbek tilida so'z yasalishi<br>19. Grammatika haqida umumiy ma'lumot<br>20. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot<br>21. Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari<br>22. Otlarda son kategoriyasi<br>23. Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari<br>24. Otlardagi kelishik kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot<br>25. Otlarning yasalishi; otlarning tuzilish jihatdan turlari.<br>26. Sifat so'z turkumi<br>27. Son so'z turkumi sifatida.<br>28.. Olmosh so'z turkumlari sifatida.<br>29. Fe'l so'z turkumi sifatida<br>30. Fe'llarning nisbat kategoriyasi<br>31. Fe'llarning mayl kategoriyasi<br>32. Fe'llarning zamon kategoriyasi.<br>33. Fe'llarning shaxs-son kategoriyasi.<br>34. Fe'lning vazifadosh shakllari. Ravishdosh<br>35. Sifatdosh haqida ma'lumot |

| | |
|---|---|
| | 36. Harakat nomi haqida ma’lumot<br>37. Fe’lning yasalishi.<br>38. Fe’lning modal shakllari va tuzilish jihatdan turlari.<br>39. Ravish so‘z turkumi sifatida<br>40. Ravishlarning yasalishi va tuzilishi<br>41. Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar<br>42. Bo g‘lovchilar haqida ma’lumot<br>43. Yuklamalar haqida ma’lumot<br>44. Alohida guruh so`zlar. Modal sozlar.<br>45. Undov so’zlar haqida ma’lumot<br>46. Taqlid so’zlar haqida ma’lumot<br>47. Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi.<br>48. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari.<br>49. Gap bo‘laklari haqida umumiy ma’lumot. Bosh bo‘laklar.<br>50. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari.<br>51. Aniqlovchi va uning ifodalanishi.<br>52. Hol va uning ifodalanishi.<br>53. Gapning uyushiq bo‘laklari.<br>54. Gapning ajratilgan bo‘laklari.<br>55. Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar.<br>56. Gaplarning tuzilish jihatidan turlari. Bir bosh bo‘lakli gaplar.<br>57. Qo‘shma gap va uning turlari. Bog’langan qo‘shma gap<br>58. Ergashgan qo‘shma gap, uning turlari. Bosh gapdagi ma’lum bo‘lakni izohlovchi ergash gaplar.<br>59. Bosh gapni to‘liq izohlovchi qo‘shma gaplar<br>60. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap<br>61. Murakkab qo‘shma gap.<br>62. Ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar, aralash tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.<br>63. O‘zga gap va uning turlari<br>64. Matn va uning xususiyati<br>65. Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari<br>66. Ona tilida tinish belgilarinig qo‘llanishi<br>67. Nutq uslublari<br>Amaliy mashg‘ulotlar ma’ruza mashg‘ulotlari asosida tayyorlangan bo‘lib, nazariy egallangan bilimlarni mustahkamlash funksiyasini bajaradi. Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid mashqlar ishlash, taqdimot tayyorlash, ijodiy ishlar, jadvallar bilan ishlash kabi ish turlaridan foydalaniladi.<br><br>**V. Mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**<br>Mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:<br>- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va |

boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- individual va guruhiy o‘quv loyihasi;
- turli ijodiy ishlar yozish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- badiiy adabiyotlar va maktab darsliklaridan misollar to‘plash kabi mustaqil ish turlaridan foydalaniladi.

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Til ijtimoiy, doim o‘zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. Dunyo tillarining tasnifi
2. Fonetika va fonologiya; nutq apparati.
3. Ona tilining vokalizmi va konsonantizmi.
4. Nutqning fonetik bo‘linishi.
5. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari
6. Grafika haqida. YOzuvning turlari.
7. Orfografiya va uning tamoyillari. Orfoepiya.
8. Leksikologiya, uning obekti, vazifalari, ona tili lug‘at tarkibining ma’no jihatidan tavsifi.
9. Lug‘at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi: omonim, sinonim, antonim, paronimlar va ularning turlari.
10. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi.
11. Lug‘at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug‘at tarkibining hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi
12. Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi.
13. Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. So‘zlarning tuzilish jihatidan turlari
14. Grammatika, uning qismlari. So‘z shakl va grammatik ma’no. Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari.So‘zning grammatik shakli. Grammatik kategoriya. So‘z turkumlariga ajratish tamoyillari.
15. Ot turkumining ta’rifi, leksik-grammatik xususiyatlari, ma’no turlari. Otlarda son
16. Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari. Otlardagi egalik kategoriyasi.

| | |
|---|---|
| | Otlardagi kelishik kategoriyasi.<br>17. Otlarning yasalishi, tuzilish jihatdan turlari<br>18. Sifat so‘z turkumi. Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari, ma’no turlari. Sifatlarning yasalishi<br>19. Son so‘z turkumi. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, ma’no turlari<br>20. Olmoshning ta’rifi, leksik-grammatik xususiyatlari.<br>21. Fe’l so‘z turkumi sifatida. O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar. Fe’llardagi nisbat kategoriyasi<br>22. Fe’lning vazifadosh shakllari. Sof fe’l va ravishdosh. Ravishdoshning grammatik ma’nosi, hosil qilinishi. Sifatdosh va harakat nomi, ularning grammatik ma’nosi, hosil qilinishi.<br>23. Fe’l mayllari. To‘liqsiz fe’llar**.** Fe’l zamonlari, ularning turlari.<br>24. Fe’llarning tuslanishi. Fe’llarning yasalishi, fe’llarning modal shakllari.<br>25. Ravish so‘z turkumi, uning leksik-grammatik xususiyatlari.<br>26. YOrdamchi so‘zlar. Ko’makchilar.<br>27. Bog’lovchilar va yuklamalar.<br>28. Alohida guruh so‘zlar, ularning turlari.<br>29. Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi.<br>30. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari<br>31. Gap bo‘laklari. Bosh bo‘laklar. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning turlari, ifodalanishi.<br>32. Ikkinchi darajali bo‘laklar.<br>33. Uyushiq va ajratilgan bo‘laklar.<br>34. Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar.<br>35. Sodda gapning tarifi va tasnifi. Zarur bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra sodda gap turlari.<br>36. Qo‘shma gap va uning turlari. Bog’langan qo‘shma gap.<br>37. Ergashgan qo‘shma gap,uning turlari. Bosh gapdagi ma’lum bo‘lakni izohlovchi ergash gaplar<br>38. Bosh gapni to‘liq izohlovchi qo‘shma gaplar<br>39. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap<br>40. Murakkab qo‘shma gap<br>41. Ergashish yo‘li bilan tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar.<br>42. Aralash tuzilgan murakkab qo‘shma gaplar<br>43.Ko‘chirma gap va o‘zga gap.<br>44. Matnning ta’rifi va tasnifi. Matnning xususiyatlari. Matnning qurilishi. Matnni shakllantiruvchi vositalar.<br>45. Punktuatsiya. Tinish belgilarining tasnifi va qo’llanishi<br>46. Adabiy til uslublari.<br>47. Leksik va fonetik uslubiyat<br>48. Morfologik uslubiyat.<br>49. Sintaktik uslubiyat |

| | |
|---|---|
| | Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan nazariy material konspekti, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.<br>**VI. Kurs ishi bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>Mazkur fandan kurs ishi yozish rejalashtirilmagan. |
| **3.** | **VII. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>– ona tili fanining umumiy tushuncha, qoida, qonun va nazariyalarining o‘zaro bog‘liqligi, ona tili fanining shakllanish va rivojlanishining tarixiy bosqichlari, ona tili fanining keyingi yutuqlari, ona tili fanining nazariy masalalari to‘g‘risida, jumladan, ona tili imlosi, uslubiyati, ona tilimizning rivojlanish tarixi; ona tilimizning lug‘at tarkibi, ona tilimizning fonetika va fonologiyasi, ona tili fanining grammatikasi, ona tili fanining uslubiyati;ona tili fanining imlosi haqida, ona tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari, ona tilini o‘qitish tarixi, rivojlanishi, fanning ob’ekti va sub’ekti, “Ona tili”ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ona tilini o‘qitishga doir yondashuv va tamoyillar, ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodlari, ona tili va o‘qish savodxonligidan dars turlari va unda qo‘llanadigan innovasion texnologiyalar, til bo‘limlarini o‘qitishdagi o‘ziga xos yondashuvlar haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi*** **(bilim);**<br>– ona tili fani bo‘yicha leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, imlosi, uslubiyati bo‘yicha tahlil qila olish, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta’limi mazmuni, bu fanlarni o‘qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ona tili ta’limida an’anaviy va noan’anaviy dars shakllarini qo‘llash, o‘quvchilar o‘quv biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi*** (ko‘nikma);<br>– o‘quv ishlarini loyihalashtirish; darsdan tashqari mashg‘ ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish, o‘z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi (malaka)*** kerak. |
| **4.** | **VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– amaliy mashg‘ulotlar<br>– taqdimotlarni qilish;<br>– individual loyihalar;<br>– jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>– ijodiy ishlar yaratish |
| **5.** | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish. |

| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. M.Hamroev, D.Muhammedova, D.SHodmonqulova, X.G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.<br>2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. Toshkent: TDPU. 2009.<br>3. M.Yo‘ldoshev. O‘zbek tili praktikumi (1-qism). Toshkent: TDPU. 2005.<br>4. Jamolxonov H.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. “Talqin”- 2005<br>5. Т.И.Бережная, Ш. Т.Махкамова. Родной язык. Ташкент. 2007 .<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>7. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.<br>8. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.<br>9. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /SH.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.<br>10. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. YAngi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.<br><br>**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**<br>11. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son Farmoni. |
|---|---|
| | **Axborot manbaalari**<br>13. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. |

| | |
|---|---|
| | 14. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.<br>15. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.<br>16. www.pedagog.uz<br>17. www. tdpu. uz<br>18. www. Ziyonet. Uz<br>19. 65a900d107e6c_Основы языкознания.pdf (dvaoblaka.ru)<br>20. 65a9046000394_Современный русский язык лексикология.pdf (dvaoblaka.ru)<br>21. 65a9049cce80e_Современный русский язык морофология.pdf (dvaoblaka.ru)<br>22. 65a9041e510a9_Синтаксис.pdf (dvaoblaka.ru) |
| **7.** | Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti temonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **A.X.To‘raxojaeva-** QDU, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>1. G.Jumanazarova – JDU,filologiya fanlari doktori, dotsent.<br>2. Z.Isaqov- QDU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |